



MAHMUD QOSHG'ARIY "DEVONU LUG'OTIT-TURK" ASARINING TURKIY TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI

Mamarajabova Diyora

diyoramamarajabova158@gmail.com

tel: +998 (94)223-74-72

Yusupova Nigora

tel: +998 (94) 901-55-20

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Filologiya fakulteti talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377218>

Annotatsiya

Mazkur tezisda Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qadimgi turkiy urug'lar, ularning yashash joylari, urf-odatlar, shevalari va geografik joylashuvi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Asarning eng muhim jihatlaridan biri — unda keltirilgan "Turkiy xalqlar xaritasi" bo'lib, bu o'rta asr Sharq dunyosidagi eng qadimgi etnolingvistik xaritalardan biridir. Mahmud Qoshg'ariy asarda turkiy tillarning ichki tuzilishi, grammatik tizimi va fonetik qonuniyatlarini chuqur tahlil qilgan. Shuningdek, u xalq og'zaki ijodidan namunalar — maqollar, qo'shiqlar, she'rlarni jamlab, turkiy xalqlarning ma'naviy dunyosini yoritgan. Qoshg'ariy turkiy xalqlarni madaniyatli, dono va yuksak axloqli elat sifatida tasvirlagan.

Kalit so'zlar: Mahmud Qoshg'ariy, Devonu lug'otit turk, turkiy tillar, lug'at, tilshunoslik, qiyosiy tahlil, grammatik tizim.

Mahmud Qoshg'ariy — XI asrning yirik tilshunosi, geograf, tarixchi va madaniyat arbobi bo'lib, uning "Devonu lug'otit turk" asari turkiy xalqlarning eng qadimiy yozma yodgorliklaridan biridir. Asar 1072–1074-yillarda arab tilida yozilgan. Tilshunoslik tarixida turkiy tillarni o'rganish va o'qitish metodologiyasining shakllanishida Sharq, xususan, arab tilshunosligi an'alarining ta'siri katta bo'lgan. Turkiy tillar qariyb to'qqiz asr davomida arab tilshunosligi metodologiyasi asosida tadqiq etilib, ta'lim sohasiga tadbqiq etilgan[1].

Ushbu ilmiy metodologiyani turkshunoslikda birinchilardan bo'lib buyuk olim Mahmud Qoshg'ariy ishlab chiqqan. "Devonu lug'otit turk" asari 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan. U uch tomdan iborat bo'lib, 1915–1917-yillarda Istanbul shahrida nashr etilgan. Olim S. Mutalliboyev asar tarjimasini 1960–1963-yillar davomida uch jildda o'zbek tilida nashr ettirgan. Bugungi kunda bu asarning asl qo'lyozmasi Istanbuldagi Milliy kutubxonada, Ali Amiriy fondida 4189 raqam ostida saqlanmoqda[2].

Mahmud Qoshg'ariy bu asarida birinchi bo'lib turkiy tillarni tavsifiy va qiyosiy usulda o'rgangan. U tilning leksik, fonetik va grammatik xususiyatlariga asoslanib, turkiy tillarning o'zaro farq va umumiyliklarini aniqlagan. Shu bois Qoshg'ariy turkiy tillarni qiyosiy tahlil asosida o'rgangan birinchi olim hisoblanadi.

Ma'lumki, "Devonu lug'otit turk" nomi ostida yozilgan bu asar faqat lug'atgina emas, balki o'sha davr tili va madaniyati, xalq og'zaki ijodi, tarixiy-etnografik holatini aks ettiruvchi ensiklopedik manbadir. Unda o'sha davr turkiy xalqlari hayotiga oid keng ma'lumotlar berilgan.

Mahmud Qoshg'ariy asarida:

1. Qaysi qabilaga mansubligi qayd etilgan leksika;
2. Turkiy qabilalarning yashagan joylari;
3. Turkiy tillarning tasnifi;
4. Turk tarixiy fonetikasi va grammatikasi;
5. Turkiy xalqlar tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, poeziyasi va folklori haqidagi ma'lumotlar;
6. Dunyoning eng qadimgi turkiy xaritasi keltirilgan.

Mahmud Qoshg'ariy turkshunoslikda birinchi bor qadimgi turk lahjalarini klassifikatsiya qilib, turk tilshunosligining muhim nazariy masalalarini yoritib berdi. Devonda bir guruh so'zlar bir qancha dialektlar uchun umumiy bo'lgan deb ko'rsatiladi. Jumladan, quyidagi so'zlar o'g'uz va qipchoqlarda qo'llanilishi ta'kidlangan; *alig'* "har narsaning qaytarilishi" [1.95], *ariq* "oriq, zaif" [1.97] va boshqalar. Ayrim so'zlar bir dialektda ma'lum bir shaklda bo'lsa, ikkinchi dialektda uning o'rnida boshqa so'z qo'llangan. Bu narsa Mahmud Qoshg'ariy tomonidan ham alohida qayd etilgan.; Masalan, boshqa turklar idish, kosa, piyolani *ayaq* desalar, o'g'uzlar uning o'rnida *janaq* so'zini qo'llaganlar. Qoshg'ariy o'z davridagi dialektlarning leksik xususiyatlarini ham to'liq ko'rsatib bergan. Muallif so'zlarni izohlar ekan, o'rni bilan ularning qaysi bir dialektga mansub ekanligi, dialektlardagi o'ziga xos ma'no xususiyatlari va boshqa muhim tomonlari haqida ham to'xtalib o'tadi. Bu esa ana shu so'zning dialectal xarakterini ochib beradi.

Bu jihatlar asarni nafaqat tilshunoslik, balki tarix, geografiya, etnologiya va adabiyotshunoslik uchun ham bebaho manba darajasiga ko'targan [3].

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari turkiy xalqlar tili, tarixi va madaniy merosining bebaho yodgorligidir. Bu asar orqali turkiy tillarning qadimiy ildizlari, grammatik tizimi va leksik boyligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, u hozirgi o'zbek tilshunosligida ham qiyosiy tahlil, tarixiy grammatika va leksikologiya bo'yicha muhim nazariy manba sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Devonu lug'otit turk. 1–2 jild.
2. Qosimjon Sodiqov. Tarixiy leksikografiya. Toshkent, 2013. — 8-bet.
3. Arxiv.uz — internet manbasi.